

MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA NAZARIYA BILAN AMALIYOTNING O'ZARO BOG'LIQLIGINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Haydarov To'liqin Turg'unbayevich

Katta o'qituvchi. Jizzax politexnika instituti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Kasb-xunar maktablarning matematik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol usullarning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Matematika fani talabalarning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi, bu esa kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyat uchun muhimdir. An'anaviy o'qitish usullaridan farqli o'laroq, interfaol usullar talabalarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va jamoaviy ishga jalb qiladi. Maqolada interfaol usullarning mohiyati, afzalliklari va ularni qo'llashdagi qiyinchiliklar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kasb-xunar maktablar, matematik qobiliyat, interfaol usullar, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ta'lim metodikalari, faol o'qitish, matematika darslari, talabalarning rivojlanishi, innovatsion ta'lim.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE INTERCONNECTION BETWEEN THEORY AND PRACTICE IN TEACHING MATHEMATICS

Khaidarov Tulkin Turgunbaevich

Senior teacher. Jizzakh Polytechnic Institute.

Abstract: This article examines the importance of interactive methods in the development of mathematical abilities in vocational schools. Mathematics plays a key role in the development of students' logical thinking and problem-solving skills, which are important for future professional success. Unlike traditional teaching methods, interactive methods ensure the active participation of students in the learning process, involving them in independent thinking, creative approach and teamwork. The article analyzes the essence, advantages and difficulties of interactive methods in their application.

Keywords: Vocational schools, mathematical abilities, interactive methods, logical thinking, problem solving, educational methodologies, active learning, mathematics lessons, student development, innovative education.

Xorijiy mamlakatlarda kasbiy-texnik ta'limni qurishning ayrim qismlari tavsifiga to'xtalamiz.

Xorijiy mamalakatlarda kasbiy ta'lim keyingi yillarda keskin o'zgardi. Fan va texnika rivoji, yangi texnik ishlanmalar, texnologiyalar va mehnatni hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllari qo'llanishi xodimlarning kasbiy tayyorlanganligiga talablarni keskin oshirib yubordi.

Bolgariyada umumxalq muhokamasidan keyin «Ta'limni rivojlantirish haqida tezislar» qabul qilindiki, ular ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi. Ta'limni yangilash uchun Bolgariya iqtisodiy va siyosiy strukturalarini qayta qurish kuchli turtki bo'ldi. Bunda yangi tipdagi o'rta maktabga – 12 yillik ta'lim ko'zda tutilgan yagona o'rta siyosiy maktabga katta o'rin ajratildi. Mazkur yagona o'rta siyosiy maktab uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichning davomiyligi o'n yil. O'qish 6 yoshdan boshlanadi. Birinchi bosqichda keng umumta'lim tayyorgarlik beriladi, mehnatga qiziqish shakllantiriladi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlar davomiyligi 2 yil (10- va 11-sinflar). Bunda o'quvchilar keng politexnik yo'nalishda kasb asoslarini o'rganadi, asta-sekinlik bilan muayyan mutaxassislikni egallaydi. Bosqichni tamomlaganidan keyin o'quvchilarga maxsus hujjatlar: birinchi bosqichdan keyin uni tamomlaganlik haqida o'quvchining kasbiy yo'nalganligini bildiruvchi shahodatnoma beriladi; ikkinchi bosqichni tamomlagandan so'ng umumta'lim tayyorgarlik darajasi haqidagi shahodatnoma va tanlangan mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik darajasi haqidagi shahodatnoma beriladi; uchinchi bosqich yakunida o'rta ta'limni tamomlagani va kasbiy tayyorgarlik olgani haqida diplom beriladi. O'qishni tamomlagan bitiruvchilar texnikum va OTMlarga kirishi mumkin.

Italiyada kasbiy ta'lim ikki tipdagi ta'lim muassasalarida: 2 va 3 yillik kasbiy maktab va o'rta texnik kadrlar hamda ma'muriyat xodimlarini tayyorlaydigan besh yillik texnik institutlarda olib boriladi. Institutni tamomlaganlar universitetga kirish huquqiga ega bo'ladi. Ularda to'qqizta yo'nalish bo'yicha tayyorgarlik amalga oshiriladi. Texnik institutlarning vazifasi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash. Ta'lim ikkita tsikl bo'yicha olib boriladi: dastlabki ikki yil ta'limning tayyorgarlik kursi; keyingi uch yilda

mutaxassislik bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar shakllantiriladi.

Britaniya ta'lim tizimi, hamma erdagi kabi, davlatning iqtisodiy vaziyatini aks ettiradi. 1980 yildan Buyuk Britaniyada milliy kasbiy malaka (kvalifikatsiya) loyihasi yaratilgan va tasdiqlangan. Loyiha beshta darajani o'z ichiga oladi:

- 1-daraja – bir xildagi ishni amalga oshirish qobiliyati;
- 2-daraja – kasbda nisbatan yuqori kompetentlik;
- 3-daraja – yuqori kompetentlik: xodim ancha murakkab topshiriqlarni bajaradi (texnik darajasi);
- 4-daraja – kompleks va tizimlashtirilgan ishlarni bajarishda yuqori kompetentlik (oliy texnik darajasi);
- 5-daraja – yuqori toifali mutaxassis.

Kasbiy ta'lim tizimida texnikomning o'rnini texnikomdagi o'qitishning universitetlar, ishlab chiqarishdagi ta'lim, bandlik xizmatlari va ta'lim institutlari bilan aloqasi belgilaydi. Tanlangan mutaxassislik va malaka darajasiga ko'ra o'quvchilar texnikomda bir yildan besh yilgacha o'qishi mumkin. Texnikomni tamomlagan talabalar quyidagi tashkilotlar tomonidan ta'sis qilingan diplomlarni oladi:

- Qirollik san'at jamiyati;
- London shaharlar va gil'diyalar instituti;
- Milliy akademik kengash;
- Texnik ta'lim bo'yicha kengash;
- Biznes sohasida ta'lim bo'yicha kengash.

Ta'lim uchta texnologiya bo'yicha amalga oshiriladi:

- yo'riqnoma (instruktaj) orqali ta'lim (past daraja);
- o'qituvchi rahbarligidagi ta'lim (o'rta daraja);

- mustaqil ta'lim yo'li bilan ta'lim (yuqori daraja).

O'quv dasturlariga imtihon olinadigan fanlar, qo'shimcha kurslar, talabaning o'z qiziqishlarini aks ettiradigan va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda tezkor moslashish imkonini beradigan mashg'ulotlar hisobiga o'tkaziladi.

O'quv markazlari, qisqa muddatli, yakka tartibdagi tayyorgarlikka mo'ljallangan kasbiy o'qitish tizimidan foydalangan holda tadbirkorlar buyurtmalarini bajaradi. Texnikomning mazkur tizimi ikki asosiy (sterjen) funktsiyani bajaradi: assotsiat darajasini olish bilan ikki yillik ta'lim beradi, nisbatan yuqori darajadagi universitet texnikomlari uchun ta'limiy tsikl dasturlarini realizatsiyalaydi.

Ta'lim mazmunini ishlab chiqish jarayoni ikki: tadqiqotchilik va amaliy bosqichdan iborat.

Tadqiqotchilik bosqichi ehtiyoji yuzaga kelgan kasb mazkur mintaqada yoki boshqa mintaqalar kasblar ro'yxatida mavjudligini aniqlaydi. Bunday kasb mavjud bo'lsa, hujjatlar bir mintaqadan boshqasiga yuboriladi. Mazkur kasb mavjud bo'lmasa, mintaqalar kengashi ta'limning yangi mazmuni: mehnat bozorida ehtiyoj, shu kasbni egallagan shaxslarning kasbiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqishga asosnoma beradi. Amaliy bosqichda standart kurslardan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi. Keyin zaruratga ko'ra yangi ta'lim kurslari ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlar ish tajribasidagi kasbiy ta'limning yo'nalganligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda asosan yoshlarning kasbiy tayyorgarligini ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi. Ishchi kuchining sifatini takomillashtirish g'oyasi bu jarayonning amaliy natijasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Bu davlatlar ish tajribasini o'rganish mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim jarayoni tizimini ishlab chiqarish va o'qitishda nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqliligilashni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish imkonini beradi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish // Monografiya. – T.: Fan, 2004-130b.
2. Umrzoqova B. Abdusaidov S."PROFESSIONAL TA'LIMNING RAQAMLI MALAKA OSHIRISH MUHITIDA TINGLOVCHILARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI ""Экономика и социум" №9(124) 2024
3. Adilov B. ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF PROJECT-DESIGN COMPETENCE OF STUDENTS OF THE ENGINEERING DIRECTION //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 318-322.